



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	



BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI

Beglayev Uchqun Xurramovich

Toshkent davlat agrar universiteti

Agrobiznesni boshqarish va logistika kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Email: beglayevuchqun@gmail.com

ORCID:0009-0008-9491-6613

Annotatsiya. Global oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror iqtisodiy rivojlanishda baliqchilik tarmog'ining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Maqolada xorijiy mamlakatlarda yetishtirilayotgan baliq mahsulotlari, ularning jahon iqtisodiyotidagi o'rni hamda ushbu sohani rivojlantirishning asosiy tendensiyalari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, baliqchilik tarmog'ida samarali faoliyat yuritishni ta'minlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, boshqaruv tizimlari va ularning asosiy mezonlari ochib berilgan. Tadqiqot doirasida akvakultura va tabiiy baliqchilikning rivojlanish istiqbollari, klasterlashuv jarayonlari, resurslardan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: baliqchilik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, tendensiya, bozor iqtisodiyoti, xo'jaliklarni boshqarish, klaster, samaradorlik, ishlab chiqarish, sohani rivojlantirish, mamlakat, akvakultura, tabiiy baliqchilik, chora-tadbirlar.

Abstract. The importance of the fisheries sector in ensuring global food security and sustainable economic development is steadily increasing. The article examines fish products produced in foreign countries, their role in the global economy, and the key trends in the development of the sector. It also explores the organizational and economic mechanisms, management systems, and their main criteria that ensure effective functioning of the fisheries industry. The study substantiates the prospects for the development of aquaculture and capture fisheries, cluster formation processes, rational use of resources, and measures aimed at improving production efficiency.

Key words: fisheries, organizational and economic mechanism, trend, market economy, farm management, cluster, efficiency, production, sector development, country, aquaculture, capture fisheries, measures.

Аннотация. Значение рыбной отрасли в обеспечении глобальной продовольственной безопасности и устойчивого экономического развития постоянно возрастает. В статье проанализированы рыбные продукты, производимые в зарубежных странах, их роль в мировой экономике, а также основные тенденции развития данной отрасли. Кроме того, раскрыты организационно-экономические механизмы и системы управления, обеспечивающие эффективное функционирование рыбохозяйственного комплекса, а также их ключевые критерии. В рамках исследования обоснованы перспективы развития аквакультуры и естественного рыболовства, процессы кластеризации, рационального использования ресурсов и повышения эффективности производства.

Ключевые слова: рыбное хозяйство, организационно-экономический механизм, тенденция, рыночная экономика, управление хозяйствами, кластер, эффективность, производство, развитие отрасли, страна, аквакультура, природное рыболовство, меры.

KIRISH

Dunyo aholisining yillar davomida oshib borishi tabiiy baliq zaxiralarini saqlab qolish va baliqchilik sanoatining o'sishini ta'minlash uchun har bir mamlakatni o'zida mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda rivojlantirishga undamoqda. Shu bois, baliqchilik sohasi rivojlangan mamlakatlar xo'jaliklar faoliyatini tubdan isloh qilish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Baliqchilikni rivojlantirish nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida har qanday davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida ichki bozorni jamiyatning barcha vakillari uchun arzon narxlarda oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va bozorni to'ldirish hisoblanadi. Baliqchilik tarmog'i qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda aholini sog'lom



turmush tarzi asosida hayot kechirishi uchun oqsilli mahsulotlar bilan ta'minlovchi muhim tarmoq hisoblanadi. Shuningdek, baliqchilik tarmog'i mahsulotlari oziq-ovqat, yengil va kimyo sanoatida hamda farmatsevtika va tibbiyot mahsulotlari uchun xomashyo sifatida ham qo'llanilishi mumkin.

Baliqchilik tarmog'idan samarali foydalanishda tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarning ishlab chiqarish samaradorligining asosi, eng avvalo, ozuqa va xomashyo bazasining mavjudligi, suv resurslari bilan ta'minlanganligi hamda baliq chavoqlarini yetishtirish tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi hisoblanadi. Ya'ni, hozirgi bosqichda baliqchilik tarmog'idagi dolzarb muammolardan biri ortiqcha baliq ovlashdir. Me'yoridan ortiqcha baliq ovlash baliq populyatsiyasining barqaror holatini buzilishiga olib keladi, bu holat esa baliq resurslarining kamayib borishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun baliqchilikdan samarali foydalanish orqali tarmoqning barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni belgilash zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI


Baliqchilik xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish, ularni tizimli va samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirish hamda sohani intensiv va innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish muammolari bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy davlatlar iqtisodchi olimlari tomonidan turli yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, xorijiy davlatlar olimlari F. Berkis, R. Maxon, M. Solomon, R. Xilborn, P. Daniyel, F. Rayner, F. D. Jonston, A. S. Tommas, S. Hammerland, K. Greer, J. Mattias baliqchilikni barqaror rivojlantirish va boshqarish masalalarini tadqiq etganlar. MDH davlatlari olimlaridan S. I. Kurdyukov, A. K. Bogeruk, Dj. Riter, O. V. Kuznetsova, N. V. Alesina, R. R. Galuliniya, J. M. Gordon, V. K. Kiselyov, P. A. Dushin, A. A. Tarasenko, V. S. Kazancheva, D. Sh. Yakubova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Shu bilan birga, bu boradagi ayrim masalalar mamlakatimiz agrar iqtisodchi olimlaridan D. R. Shoximardonov, S. S. G'ulomov, R. X. Ergashev, I. O. Yunusov va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida qisman o'rganilgan hamda tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar asosan FAO statistik bazalari, ilmiy adabiyotlar va xalqaro hisobotlardan yig'ildi. Tahlilda qiyosiy, dinamik va statistik usullar qo'llanib, vaqt qatorlari asosida o'sish tendensiyalari baholandi. Shuningdek, mamlakatlar kesimida solishtirma tahlil va prognoz ko'rsatkichlarini umumlashtirish orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda yetishtirilayotgan baliqlar asosan insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan baliqning yarmidan ko'pi akvakulturada yetishtirilmoqda. Baliq yetishtirish hajmini oshirish va mavjud turlarni saqlab qolish maqsadida dunyo davlatlari o'rtasida bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga kelib dunyo bo'yicha 177 mln tonna baliq yetishtirilishi prognoz qilingan bo'lib, 2030-yilga kelib bu ko'rsatkich 202 mln tonnani tashkil etishi qayd etilgan (1-rasm).



1-rasm. Dunyoda 2025-2030-yillarga yetishtirilishi mo'ljallangan baliq hajmi prognoz ko'rsatkichi¹

1 <https://www.statista.com> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



FAO ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 1980-yildan 2010-yillargacha bo'lgan davrda baliq yetishtirish ko'rsatkichi sezilarli darajada tushganligi, 2020-yildan boshlab esa baliq yetishtirish ko'rsatkichi o'rtacha 14 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Bu shuni ifodalaydiki, 2020-yilda qo'shimcha 24 mln tonna baliq yetishtirishga erishilgan.

Shuningdek, baliqchilik sohasini jadal rivojlantirish natijasida so'nggi yillarda jahonda dengiz mahsulotlari bozori kengayishi kuzatilmoqda. 2017-yilda jahon dengiz mahsulotlari bozori 125,2 mlrd AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2025-yilga kelib 187,2 mlrd AQSh dollarigacha o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.

Dunyoda 2027-yilga kelib baliq yetishtirishda akvakulturada ishlab chiqarish asosiy o'rinni egallashi hisobga olinib, baliq ko'paytirish hajmi 106 mln tonnani tashkil etishi prognoz qilinmoqda. 2030-yilga kelib bu ko'rsatkich umumiy o'sishning 22 foizini yoki 19 mln tonnani tashkil etadi.

Baliqchilik sohasi qaysi subyektlar faoliyatidan qat'i nazar, butun dunyodagi millionlab insonlar uchun oziq-ovqat va daromadning muhim manbai bo'lib qolmoqda. Baliq mahsulotlari dunyodagi eng mashhur oziq-ovqat mahsulotlaridan biri hisoblanadi va baliq eksportining yarmidan ko'pi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Globallashuv hamda iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida baliqchilik va dengiz mahsulotlari yetishtirish 2020-yilda 49 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga kelib bu ko'rsatkich 53 foizga yetishi kutilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Dunyo mamlakatlari bo'yicha 2020-2030-yilda baliq yetishtirish ko'rsatkichi²

Mamlakatlar	Baliq yetishtirish hajmi			Akvakultura		
	2020 1 000 (jonli vazn)	2030 tonnani tashkil etadi ekvivalenti)	2030-yilda 2020-yilga nisbatan %	2020 1 000 (jonli vazn)	2030 tonnani tashkil etadi ekvivalenti)	2030-yilda 2020- yilga nisbatan %
Afrika	12 044	13 763	14.3	2 250	2 759	22.6
Misir	2 011	2 339	16.3	1 592	1 911	20.0
Nigeriya	1 045	1 208	15.6	262	318	21.4
Janubiy Afrika	602	522	-13.3	6	12	90.5
Amerika	21 903	24 499	11.8	4 375	5 623	28.5
Argentina	840	896	6.7	2	2	10.3
Braziliya	1 339	1 527	14.1	629	751	19.3
Kanada	901	1 061	17.8	171	244	42.5
Chili	3 259	4 290	31.6	1 486	2 193	47.6
Meksika	1 780	1 910	7.3	279	296	6.2
Peru	5 770	6 210	7.6	144	184	28.2
AQSH	4 694	5 298	12.9	448	548	22.3
Osiyo	124 960	143 182	14.6	77 384	94 095	21.6
Xitoy	62 846	73 608	17.1	49 620	60 068	21.1
Hindiston	14 141	16 775	18.6	8 636	10 995	27.3
Indoneziya	12 152	13 678	12.6	5 227	6 598	26.2
Yaponiya	3 751	3 471	-7.5	599	684	14.1
Koreya	1 934	1 933	-0,1	566	633	11.7
Filippin	2 766	3 337	20.6	854	1 045	22.3
Tailand	2 618	2 763	5.5	962	1 113	15.6
Vet Nam	8 023	9 123	13.7	4 601	5 202	13.1
Yevropa	17 096	18 696	9.4	3 263	3 704	13.5
Yevropa Ittifoqi	5 026	5 555	10.5	1 094	1 256	14.9
Norvegiya	3 941	4 012	1.8	1 490	1 612	8.2
Rossiya	5 342	5 855	9.6	270	368	36.3
Okeaniya	1 752	1 972	12.5	229	264	15.7
Avstraliya	284	305	7.4	106	129	21.3
Yangi Zelandiya	482	541	12.1	119	131	10.3
JAMI	177 757	202 112	13.7	87 501	106 445	21.7


2 <https://www.statista.com> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2030-yilga kelib Xitoyda baliqchilik va akvakultura ishlab chiqarish hajmi 79 foizdan 82 foizgacha o'sishi kutilmoqda. Yuqoridagi prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha sekinlashuv Xitoyning akvakultura ishlab chiqarishiga tegishli hisoblanadi. Davlat tomonidan to'liq nazoratning amalga oshirilishi kutilgan natijaga erishish imkonini berib, sohaning moliyaviy imkoniyatlarining bir qismi kompensatsiya qilinganligi sababli baliq ishlab chiqarish bo'yicha boshqa mamlakatlarga nisbatan yetakchilik saqlanib qolmoqda.

Baliqchilikni rivojlantirish hududlarning o'rni va joylashuvidan kelib chiqib, akvakulturada baliq ishlab chiqarish asosiy o'rinni egallaydi. Prognoz qilingan ko'rsatkichlar qit'alar, mamlakatlar va hududlar o'rtasida taqqoslanganda Amerika (29 foiz), Afrika (23 foiz) va Osiyo (22 foiz) hududlarida o'sish kuzatilgan.

Dunyo mamlakatlarida baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi prognozlarga ko'ra 96 mln tonnani tashkil etishi, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 5 mln tonnaga ko'proq bo'lishi va umumiy o'sish 6 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Biroq, keyingi o'n yillikda ayrim tebranishlar kuzatilishi prognoz qilinmoqda. Bu holat El Niño hodisasi bilan bog'liq bo'lib, Janubiy Amerikada, ayniqsa anchoveta baliqlarini ovlash hajmining kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada dunyo bo'yicha baliq ovlash (capture fisheries) ishlab chiqarishida umumiy pasayish yuz berishi ehtimoli mavjud (2-rasm).



2-rasm. Dunyo mamlakatlarida 2012-2025-yillar davomida global baliq ishlab chiqarish ko'rsatkichi (mln tonna)³

Jahon miqyosida baliq ishlab chiqarish 2025-yilga kelib 191,2 mln tonnaga yetgan bo'lib, so'nggi o'n yillikda dunyoda baliq ishlab chiqarish taxminan 30 mln tonnaga oshgan. Bunga akvakultura hamda tabiiy suv havzalarida baliq yetishtirish va ovlash kiradi.

Olib borilgan tadqiqotlarimizdan kelib chiqib, xorijiy mamlakatlarda baliqchilik sohasini rivojlantirish va xo'jalik subyektlarini boshqaruv mexanizmini takomillashtirishda asosiy mezonlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tahlillarimiz natijasiga ko'ra, yetakchi mamlakatlar baliqchilik sohasini boshqarishda atrof-muhitni muhofaza qilish, texnologiyalar va siyosatlariga e'tibor qaratish orqali o'z strategiyalarini belgilab oladi (2-jadval). Bu esa o'z navbatida mamlakatlar uchun barqaror oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ekologiya va suv sifatini saqlash, baliqlarda uchraydigan turli kasalliklarning oldini olish hamda iqtisodiy xavflarni kamaytirishga yo'naltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Baliqchilik sohasida yetakchi mamlakatlar boshqaruv amaliyoti

Davlatlar	Asosiy baliq tur(lar)i	Boshqaruv modeli va yangi o'zgarishlar (2024–2025)	Asosiy xususiyatlar va texnologiyalar
Norvegiya	Losos (salmon)	Traffic Light System (dengiz mahsulotlari ta'siriga qarab o'sishni tartibga solish) + yangi White Paper (2025): atrof-muhit ta'siriga asoslangan kvotalar, individual insentivlar (kam hajmlar uchun imtiyozlar). 5% gacha yo'qotish darajasini himoya qilish.	Avtomatlashtirilgan fermier xo'jaliklar, dronlar, offshor texnologiyalar, davlat tomonidan qat'iy ekologik monitoring.

³ <https://www.statista.com/markets/421/topic/497/fisheries-aquaculture/#statistic1>



Xitoy	Karp, tilapiya, qisqichbaqa	Ekologik himoya siyosati (2018–dan): “Zero growth” okean va dengizda baliq ovlash, akvakulturada industrializatsiya va intensivlashtirish. Deep-sea aquaculture rivojlantirish (2023–2025 rejalari).	IMTA (integrallashgan multitrophic), zavod tipidagi xo‘jaliklar, ozuqa samaradorligini oshirish.
Vyetnam	Qisqichbaqa (shrimp), pangasius	2024-yildagi milliy modernizatsiya rejasi: baliq kasalliklarni nazorat qilish, ASC sertifikatlashtirish, intensiv va integrallashgan tizimlar. Biotexnologiyasi kengaymoqda.	Eksportga yo‘naltirilgan, biosekuriti, modulyar tizimlar, funksional qo‘shimchalar.
Indoneziya	Qisqichbaqa, dengiz o‘simliklari	Hududiy rejalashtirish + 2030-yilgacha o‘shish maqsadlari. Barqarorlik uchun ishlab chiqarishni to‘liq qayta tiklash va restorantiv akvakultura.	Kichik fermerlarni qo‘llab-quvvatlash, texnologiya transferi, eksport standartlari.
Yevropa Ittifoqi	Losos, forel, midiya	Qat‘iy ekologik standartlar (70%+ ferma), innovatsiyalarga grantlar, offshor akvakultura. Mikroalgalar ozuqa sifatida tasdiqlandi (2025).	RAS va offshor, raqamli monitoring, feed efficiency 15% ga oshirilgan.
O‘zbekiston	Sazan, laqqa, tolostolob	Innovatsiyalarga grantlar, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmining ishlab chiqilganligi. Ozuqa bazasini shakllantirish bo‘yicha amaliy ishlar (2030-yilgacha).	Turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo‘jaliklari, intensiv texnologiyalarning tizimli jalb etilishi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda baliq yetishtirish (akvakultura) sohasining boshqaruvi turlicha bo‘lsa-da, umumiy maqsad bir bo‘lib, barqarorlikni ta‘minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, baliq kasalliklarining oldini olish, iqtisodiy samaradorlikka erishish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashdan iborat. FAOning 2024–2025-yillardagi ma‘lumotlariga ko‘ra, baliqchilik sohasida yetakchi mamlakatlarda boshqaruv tizimlari quyidagicha tashkil etilgan. Shu bilan birga, FAO tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan Guidelines for Sustainable Aquaculture (GSA) jahon miqyosidagi faoliyatni tartibga solishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Unda quyidagi asosiy prinsiplar muhim rol o‘ynaydi:

davlatlarda akvakultura uchun mas‘ul organ tashkil etish (bir markazlashtirilgan boshqaruv);
ekotizimga asoslangan yondashuv (ecosystem approach): suv, yer va ozuqa resurslaridan samarali foydalanish;

recirculating aquaculture systems (RAS) – suvni qayta aylantirish tizimlarini keng joriy etish (suv sarfini 90% gacha kamaytiradi);

sertifikatlashtirish va monitoring: ASC (Aquaculture Stewardship Council) kabi standartlar orqali barqarorlikni ta‘minlash;

ijtimoiy mas‘uliyat: fermerlar huquqlari, gender tengligi va jamoat ishtiroki.

Baliqchilik xo‘jaliklarini dunyo mamlakatlari negizida 2030-yilgacha rivojlantirish tendensiyalari quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

dunyo baliqchilik va akvakulturasida baliq ishlab chiqarish hajmini vaqt kesimida kengaytirish, savdo va iste‘mol bozorlarini rivojlantirish orqali o‘shish darajasini oshirish;

baliqchilik subyektlarini hududlar va resurslar bo‘yicha tizimli boshqaruv mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish; akvakulturada baliq ishlab chiqarishda talab va taklif o‘rtasidagi tafovutning yildan yilga keskinlashuvi;

ozuq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda ayrim hududlarda, xususan Afrika mamlakatlarida, aholi jon boshiga iste‘molning pasayishi;

barqaror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga erishish hamda baliqchilik xo‘jaliklari va akvakulturada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksportga tizimli yo‘naltirish;

jahon darajasida narxlarning o‘zgarishi, ishlab chiqarish va iste‘mol o‘rtasidagi tafovutning ortib borishi va h.k.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Р.Эргашев, С.Халиков, У.Беглаев. Балиқчилик иқтисодиёти. Дарслик.: Т.- 2020. – 292 бет
2. Беглаев У.Х. Балиқчилик хўжаликларини ривожлантириш ва бошқариш. // Монография. – Т.: “Наврўз”, 2020, – 131 б.
3. Зокиров О., Пардаев А. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти – Т.: “ЎАЖБНТ маркази”, 2003.-456 Б.;
4. Калиев Г.А. и др. Трудовые крестьянские (фермерские) хозяйства. Рекомендации. – Алма-Ата, 1990.- 30 С.
5. Каримов С., Темиров Ш. Ҳайвонларни озиклантириш технологияси маърузалар матни – Қарши.: 2011. 105 б
6. M.Blaug The Methodology of Economics or how economists explain [Cambridge University Press](https://www.cambridge.org/9780521432874) 1992-416 p
7. Мақсудов И., Жўраев Ж., Амиров Ш. Чорвачилик асослари ўқув қўлланма - Т.:2012-361 б – 12 бет



8. Чориев Қ.А. Қишлоқ хўжалигида инновациялар жорий қилиш тизимини шакллантириш ва рағбатлантириш истиқболлари (услугий тавсиялар). - Тошкент, 2014.
9. Шохимардонов Д.Р. Минтақаларда балиқчиликни ривожлантириш – Т.: 2010
10. Алесина Н.В. Совершенствование структуры управления рыбохозяйственным комплексом на микроуровне (на примере пред- тий Керченского п-ва) // Авт. реф. дисс. на соиск. уч. степени канд. эконом, наук. - М.: ВНИЭРХ, 2001.-20с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>